



ODDIY IGIR (*ACORUS CALAMUS L.*)NINNG KIMYOVIY TARKIBI VA DORIVOR XUSUSIYATLARI

Toliboyeva Setora

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi

Iskandarova Sayyora

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15253602>

Annotatsiya: Dorivor o'simliklar -inson va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o'simliklar —giyohlar. Yer yuzida dorivor o'simliklarning 10—12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o'simlik turining kimyoviy, farmakologik va xossalari tekshirilgan.

Kalit so'zlar. Dorivor o'simliklar, oddiy igir (*Acorus calamus L.*), efir moylari, tik o'suvchi, achchiq akorin glikozidi, oshlovchi moddalar, smola, kraxmal.

O'zbekistonda dorivor o'simliklarning 700 dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o'sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o'simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo'llanadigan dori-darmonlarning qariyb 40–47% o'simlik xom ashyolaridan olinadi.

O'simliklar murakkab tuzilishiga ega bo'lgan jonli tabiiy kimyoviy laboratoriya bo'lib, oddiy noorganik moddalardan murakkab organik moddalar yoki birikmalarni yaratish qobiliyatiga ega. Dorivor o'simliklarning quritilgan o'ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tunganagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli, g'unchasi, mevasi (urug'i), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moylari va boshqalardan doridarmon tarzida foydalaniladi.

Oddiy igir (*Acorus calamus L.*) - kuchaladoshlar – *Agaseae* oilasiga mansub ko'p yillik bir pallali o't o'simlik hisoblanadi. Ildizpoyasining yuqori tomonidan barg to'plamlari o'sib chiqqan bo'ladi. Bargi qilichsimon bo'lib uzunligi 120 sm, tekis qirrali va parallel tomirlangan. Poyasi yashil rangli, tik o'suvchi, shoxlanmagan, uch qirrali, bargsizdir. Poyada 2 jinsli, so'tacha to'plangan sariq gullar bo'ladi. So'ta konussimon bo'lib, uzunligi 4-12 sm. Gul toplami - so'ta, yonidan 50 sm uzunlikda o'rovchi (qinli) barg chiqadi. Gul qo'rg'oni ko'rimsiz, oddiy, olti bargli, otaligi 6 ta, onalik tuguni 3 xonali, yuqoriga joylashgan. Mevasi - cho'zinchoq, ko'p urug'li, qizil xo'l meva ildiz poya hidlidir.

Poyasi (gul o'qi) yashil, tik o'suvchi, shoxlanmagan, uch qirrali, bargsiz, bir tomoni tarnovsimon, ikkinchi tomoni esa o'tkir qirrali. Poyada ikki jinsli, so'taga to'plangan sariq gullar bo'ladi. So'ta silindrsimon — konusga o'xshash bo'lib,

uzunligi 4—12 sm.

Gul to'plami — so'ta yonidan 50 sm uzunlikda o'rovli (qinli) barg chiqadi. Gulqo'rg'oni ko'rimsiz, oddiy, olti bargli, otaligi 6 ta, onalik tuguni uch xonali, yuqorida joylashgan. Mevasi — cho'zinchoq, ko'p urug'li, qizil ho'l meva. Ildizpoya va bargi hidli, mayda ildizlari hidsiz. May oyi oxiridan boshlab iyulgacha gullaydi.

Daryo, ko'l va hovuz bo'ylarida, ko'lmaklarda, botqoqlik, o'tloqlarda va botqoq atroflarida o'sadi. Moldova, Ukraina, Belarus, Boltiq bo'yi mamlakatlari, Rossiya-ning Yevropa qismining janubida, Qozog'istonda, Sibir, Yakutiya, Uzoq Sharqda, qisman Kavkaz va O'rta Osiyo (O'zbekistonning Xorazm va Samarqand viloyatlari)da uchraydi. Mahsulot, asosan, Belarus va Ukrainada tayyorlanadi, lekin Qozog'iston va Amur daryosining o'rta oqimida yig'ish mumkin.

Oddiy igir O'zbekistonning Samarqand viloyati hududida tarqalgan. U turg'un va sekin oqadigan suvlarda, allyuvial (yirik daryo suvidan ta'minlanib turuvchi grunt suvlari yaqin bo'lgan qayirlarda, quyi daryo terassalarida va hozirgi deltalarda shakllangan) tuproqlar, daryolar qirg'oqlarida, irmoqlarda, ko'l va daryolar va botqoqlashgan qismlarda ko'proq o'sadi (1-rasm).



1-rasm. Oddiy igir

Kimyoviy tarkibi. Igir ildizpoyasi tarkibida 5% gacha efir moyi, achchiq akorin glikozidi, oshlovchi moddalar, smola va 25,5% gacha kraxmal bo'ladi. Igir bargi tarkibida efir moyi, 150 mg% gacha vitamin C va oshlovchi moddalar bor.

Ishlatilishi. Igir preparatlari achchiq xushbo'y dori sifatida ishtaha ochish va ovqat hazm qiliish jarayonini yaxshilashda yordam beradi. Buyrak, jigar, o't pufagi kasalliklarini davolashda ham qo'lla-nilgan. Igir ildizpoyasi parfumeriya va oziq-ovqat (likor tayyorlashda) sanoatida ham ishlatiladi.

Dorivor preparatlari — qaynatma. Ildizpoya achchiq nastoyka, achchiq rovoch nastoykasi va me'da kasalliklarida hamda ishtaha ochish uchun



ishlatiladigan yig'ma choylar tarkibiga kiradi.

Igir ildizpoyasining efir moyi buyrak va o't yo'lari tosh kasalligini davolashda hamda uning oldini olishda ishlatiladigan „Olimetin“ preparati, ildizpoya kukuni — me'da va o'n ikki barmoq ichak yara kasalligida ishlatiladigan „Vikalin“ va „Vikair“ preparatlari tarkibiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahammadiyev, J. N., Raxmonov, V. N., Amonov, B. S., Abduqahhorov, J. M., & Maxammadiyev, M. N. (2021). MICROCAPSULATION COATING MATERIALS AND ITS APPLICATION IN FOOD TECHNOLOGY. In Archive of Conferences (pp. 58-60).
2. Рахмонов, В. Н. (2023). МАИШИЙ ВА САНОАТ ОҚОВА СУВЛАРИНИ БИОЛОГИК ТОЗАЛАШДА КАРОЛИНА АЗОЛЛАСИ (AZOLLA CAROLINIANA WILLD.) ВА КИЧИК РЯСКА (LEMNA MINOR L.) ЎСИМЛИКЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 897-900.
3. Raxmonov, V., & Xamroyev, A. (2023). О 'ТХО 'R BALIQLAR UCHUN RYASKA (LIMNA) О 'SIMLIGIDAN EKOLOGIK TOZA, ARZON VA TO 'YIMLI OZUQA TAYYORLASH. Science and innovation in the education system, 2(12), 167-171.
4. Mahammadiyev, J. N. O. G. L., & O'G'Li, M. N. J. (2022). KAPSULLASH USULLARI VA ULARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI SAQLASHDAGI AHAMIYATI. Academic research in educational sciences, (Conference), 460-464.
5. Mahammadiyev, J., Abdivoitova, S., Erkinova, Z., & Toshqulov, T. (2025). ARTISHOK (CYNARA L.) TURLARINING BIOLOGIK FAOLLI GI VA KLINIK TADQIQOTLAR. Естественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования, 4(4), 74-77.
6. Raxmonov, V. N. (2022). AZOLLA (Azolla) VA RYASKA (Lemna) O'SIMLIGIDAN BALIQCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA FOYDALANISH. Academic research in educational sciences, (Conference), 638-640.
7. Nurmanova, I., & Mahammadiyev, J. (2023). APPLICATION OF MICROENCAPSULATION TECHNOLOGY IN THE FIELD OF TEXTILES. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 712-715.
8. Мухаммадиев, Ж. Н., Абдусаломов, Ж. Т., Насимов, Х. М., Курбонова, Д. А., & Холмурзаев, Ф. Ф. (2021). Важность Микрокапсул Для Скрытия Вкусов И Запахов Веществ. Central Asian Journal of Medical and Natural Science, 2(6), 336-338.
9. Shernazarov, S., Davronova, S., Tashpulatov, Y., Rakhmonov, V., Muminov, S., & Nurniyozov, A. (2024). The importance of Azolla aquatic plants in creating a



natural sustainable nutrient environment in the fisheries industry. In E3S Web of Conferences (Vol. 539, p. 02009). EDP Sciences.

10. Dustov, B., Aitbayeva, K., Rakhmonov, V., Tashpulatov, Y., & Shernazarov, S. (2024). Floristic and ecological characteristics of algoflora of different types of reservoirs of the West Zarafshan Ridge (Uzbekistan). In E3S Web of Conferences (Vol. 510, p. 03003). EDP Sciences.

